

O'RTA ASR YEVROPA TARJIMA MARKAZLARI TIZIMIDA ISPANIYA SHAHARLARINING O'RNI: BARCELONA, PAMPLONA, SARAGOSA VA SEGOVIYA

МЕСТО ИСПАНСКИХ ГОРОДОВ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ЕВРОПЕЙСКИХ ЦЕНТРОВ ПЕРЕВОДА: БАРСЕЛОНА, ПАМПЛОНА, САРАГОСА ВА СЕГОВИЯ

THE PLACE OF SPANISH CITIES IN THE SYSTEM OF MEDIEVAL EUROPEAN TRANSLATION CENTERS: BARCELONA, PAMPLONA, ZARAGOZA VA SEGOVIA

Mahmudov Otabek Valijonovich¹

¹Mahmudov Otabek Valijonovich

– Farg'ona davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası mudiri, PhD., dotsent.

Annotatsiya

Maqolada lotin tilli manbalar tahlili asosida Ispaniyaning Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya shaharlarida arab-ibroniy-lotin tarjimachilik an'alarining shakllanishi va rivoji, mazkur jarayonda ishtirok etgan tarjimon-olimlarning faoliyati yoritilgan. Muallif o'z tadqiqot natijalariga tayangan holda, mazkur to'rt shaharni o'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimidagi ikkinchi toifa – tarjimonlar mustaqil faoliyat yuritgan tarjima markazlari qatoriga kiritish lozim, degan xulosaga kelgan.

Аннотация

В статье на основе анализа латиноязычных источников освещается становление и развитие традиции арабо-иврито-латинского перевода в таких городах Испании, как Барселона, Памплона, Сарагоса и Сеговия, а также деятельность ученых-переводчиков, участвовавших в этом процессе. Автор, основываясь на результатах своего исследования, пришел к выводу, что эти четыре города следует отнести ко второй категории в системе средневековых европейских центров перевода, где переводчики действовали самостоятельно.

Abstract

Based on the analysis of Latin-language sources, the article highlights the formation and development of the tradition of Arabic-Hebrew-Latin translation in Spanish cities such as Barcelona, Pamplona, Zaragoza and Segovia, as well as the activities of translation scientists involved in this process. The author, based on the results of his research, came to the conclusion that these four cities should be attributed to the second category in the system of medieval European translation centers, where translators acted independently.

Kalit so'z: Barselona, Pamplona, Saragosa, Segoviya, arab, ibroniy, lotin, manbalar, arabshunoslik, tarjima, tarjimonlar, tarjima markazlari, musulmon Sharqi allomalari.

Ключевые слова: Барселона, Памплона, Сарагоса, Сеговия, иврит, арабский язык, латынь, источники, арабистика, перевод, переводчики, переводческие центры, ученые мусульманского Востока.

Key words: Barcelona, Pamplona, Zaragoza, Segovia, Hebrew, Arabic, Latin, sources, Arabic studies, translation, translators, translation centers, scholars of the Muslim East.

KIRISH

Biz, o'zimizning avvalgi ishlarimiz [12, 13]da o'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Italiya hamda Sitsiliya shaharlarining tutgan o'rniga oid xulosalarimizni e'lon qilgan edik. Bundan tashqari, XII–XIII asrlarda tarjima jarayonlari yo'lga qo'yilgan Marsel va Monpelye kabi janubiy Fransiya shaharlari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib, bu boradagi natijalar ham [11] nashr etildi. Qayd etish joizki, XII–XIII asrlarda asarlarni arab tilidan lotin tiliga o'girishda Pireney yarim orolidagi tarjimachilik ishlari Yevropaning boshqa hududlariga qaraganda ancha sermahsul bo'lgan. Mazkur tarjima jarayoni yarim orolning Ispaniya tarkibida bo'lgan Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya, Segoviya, Toledo kabi shaharlarda kechgani bois, ularni Ispaniya tarjima markazlari sifatida atash to'g'riroq bo'ladi.

Mazkur tarjima markazlari ichida Toledo alohida o'ringa ega bo'lib, boshqa shaharlardan farqli ravishda bu yerda tom ma'nodagi tarjima muassasasi tashkil topgan edi. Fan tarixida Toledo tarjimonlar maktabi, Toledo tarjima maktabi va Toledo maktabi nomlari bilan yuritiluvchi mazkur muassasa tarixi bugungi kunga qadar yevropalik tarixchilar tomonidan muayyan darajada o'rganib kelinmoqda. Qayd etish lozimki, Markaziy Osiyo olimlari ilmiy merosini Yevropadagi ilk tadqiq markazi sifatida ushbu maktab tarixi yurtimizda ham maxsus [8] o'rganildi. Shunday bo'lsa-da,

Ispaniyaning Toledodan boshqa shaharlarida olib borilgan tarjimachilik ishlari tarixiga mahalliy tadqiqotlarda e'tibor qaratilmagan. Vaholanki, Toledodan tashqari, Barselona, Mursiya, Pamplona, Saragosa, Sevilya va Segoviya kabi shaharlarda ijod qilgan tarjimonlarning bu boradagi xizmatlari ham alohida e'tibor va tadqiqotga loyiqdir. Chunonchi, o'rta asr musulmon Sharqi, shu jumladan Markaziy Osiyo allomalari asarlarining lotinchaga tarjima etilishini hamda bu ulkan ilmiy merosni Yevropada keng yoyilishini ularning xizmatlarisiz tasavvur qilish ancha mushkul.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ayni yo'nalishdagi dastlabki izlanishlar italyan fan tarixchisi Baldasar Bonkompani (1821–1894) tomonidan amalga oshirilgan. Olim Barselonada ijod qilgan Tivolalik Platon faoliyatiga bag'ishlangan «Delle versioni fatte da Platone Tiburtino» [14] («Tivolalik Platon tomonidan tayyorlangan [tarjima] nusxalar[i]») nomli maqolasini 1851 yilda e'lon qilib, tarjimonning shaxsiyati va u tomonidan lotin tiliga o'g'irilgan arab tilidagi asarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirgan. Biroq, B.Bonkompani maqolasi sohasidagi dastlabki izlanishlardan biri bo'lganligi bois, unda bir qator chalkashliklar ko'zga tashlanadi. Misol uchun, ishda Platon arab tilidagi asarlarni lotin tiliga tarjima qilishda bir o'zi faoliyat yuritgan [14: 249]ligi qayd etilgan. Platon tomonidan yaratilgan tarjimalarning matnlari hamda sohaga oid manbalar tahlili natijasida tarjimon o'z faoliyati davomida Avraam bar-Hiya ismli yahudiy tarjimon bilan hamkorlikda ishlaganligi ayon bo'ldi.

Segoviyadagi tarjima jarayonlarini yoritishda amerikalik matematik Lui Charlz Karpinskiy (1878–1956)ning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, olim tomonidan 1915-yilda nashrga tayyorlanib, Nyu York va Londonda e'lon qilingan Muhammad al-Xorazmiy (783–850)ning «Kitob muhtasar fi hisob al-jabr va-l-muqobala» («Al-jabr va-l-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»)ining lotincha nusxasi [17]da XII asrdagi tarjima jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo, nashrning Chesterlik Robert hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'limida tarjimon shu davrda Ispaniyada faoliyat yuritgan Kettonlik Robert bilan bitta shaxs, deb ko'rsatiladi [16: 25–26]. Vaholanki, mazkur ismlar ikki shaxsga tegishli bo'lib, ulardan Chesterlik Robert Ispaniyaning Segoviya shahrida, Kettonlik Robert esa Pamplonada istiqomat qilgan. Chesterlik Robert asosan tabiiy va aniq fan sohalariga tegishli asarlarni tarjima qilish bilan nom chiqargan bo'lsa, Kettonlik Robert fan tarixiga «Qur'on»ning lotin tilidagi ilk mukammal tarjimasining muallifi sifatida kirgan.

Tahlil etilayotgan masalalarni o'rganishda Londondagi Varburg instituti professori Charlz Bernettning «A group of Arabic-Latin Translators Working in Northern Spain in the Mid-12th Century» [15] («Shimoliy Ispaniyadagi arab-lotin tarjimonlar guruhining XII asr o'rtalaridagi faoliyati») hamda «The Translating Activity in Medieval Spain» [16] («O'rta asrlarda Ispaniyadagi tarjimachilik faoliyati») nomli maqolalari muhim ahamiyatga ega. Biroq, muallif o'z ishlarida masalaga umumiy rakursda e'tibor qaratib, Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviyadagi tarjimachilik ishlarini manbalar emas, balki zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil etishga harakat qilgan.

Ispaniyaning Rovira va Virjiliy universitetining ingliz va nemisshunoslik kafedrası professori Entoni Pimning «Negotiating the Frontier: Translators and Intercultural in Hispanic History» [19] («Sarhadlarga oid munozaralar. Ispan tilli tarixda tarjimonlar va madaniyatlararo munosabatlar») nomli monografiyasida esa XII–XIV asrlardagi diniy ziddiyatlar jarayonida turli e'tiqoddagi tarjimonlarning birgalikdagi faoliyati va ayni jarayonda cherkov hamda davlatning tutgan o'rnini ochib berishga harakat qilingan.

Yuqoridagi kabi ishlarga umumiy xos bo'lgan jihat shuki, ularda Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviyaga o'rta asr Yevropa tarjima markazlari sifatida qaralmay, mazkur to'rt shahardagi tarjima faoliyati XII–XIII asrlardagi Ispaniyada kechgan jarayonlar fonidagina qisman yoritilgan. Biz, ushbu shaharlar o'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan, deb hisoblaymiz.

Manbalar tahlili. XII–XIII asrlarda Barselona, Pamplona va Saragossa shaharlarida tarjima ishlarini yo'lga qo'yilishi, mazkur markazlarda ijod qilgan tarjimonlar va ular tomonidan yaratilgan tarjimalar to'g'risida ma'lumot beruvchi dastlabki asar bu «Summa totius haeresis Saracenorum» [1] («Musulmonlarning tartib qoidalari») nomli risoladir. U XII asr o'rtalaridagi tarjima jarayonlarini tashkil etishga bevosita boshchilik qilgan Per de Montboissiyer (1094–1156) tomonidan yozilgan. Asarda hozirgacha bahsli hisoblangan Toledo maktabining tashkil topishiga oid masalaga oydinlik kirituvchi bir qancha muhim ma'lumotlar aks etgan. Bundan tashqari, unda ayni davrda Ispaniyada

TARIX

ijod qilgan va asar muallifi bevosita muloqotda bo'lgan o'nga yaqin tarjimonlarning shaxsiyati hamda «Qur'on»ning lotin tiliga o'girilishiga taalluqli qaydlar mavjud. Ma'lumot o'rnida aytish o'rinliki, 1142–1143-yillarda Ispaniya bo'ylab sayohatda bo'lgan Per de Montboissier Barselona, Pamplona, Saragossa va Toledo tarjimonlarini o'zaro birlashtirib «Qur'on»ning lotin tilidagi ilk nusxasini yaratilishiga boshchilik qilgan shaxs hisoblanadi. «Summa totius haeresis Saracenorum» aslida islomiy ta'limotlarni chuqurroq o'rganib, ulardagi xatoliklarni aniqlash va shu asosida bu ta'limotlarni inkor etish maqsadida yozilgan bo'lsa-da, u musulmon madaniyati va fani tarixiga bag'ishlangan Yevropadagi ilk asar ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega. Asarning asl qo'lyozmasi bugungi kunda Fransiyaning Due munitsipal kutubxonasi fondida MS 381 xos raqami bilan saqlanadi. Uning lotincha matni ingliz tilidagi izohlari bilan 1964-yilda Priston universitetida nashr [4] qilingan.

Toledo hamda Barselona tarjimonlarining o'zaro hamkorligi, ayni davrdagi tarjimachilar va ular tomonidan yaratilgan bir qancha tarjimalar, ish jarayonida qo'llanilgan uslublar hamda maktab xodimlari uchun bunyod etilgan faoliyat xonalariga oid ma'lumotlar 1209–1247-yillarda ushbu maktabning bosh homiysi va boshqaruvchi egasi bo'lgan Rodrigo Ximenes de Rada (1170–1247)ning «De rebus Hispaniae» [2] («Ispaniya bo'yicha savollar») nomli asarida keltirilgan. Pireney yarim orolining eng qadimgi davrlardan to 1243-yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan asar to'qqiz qismdan iborat. Unda, ma'lumotlar mazkur hududda yashagan rimliklar, ostgotlar, xunlar, vandallar, alanlar, arablar kabi xalqlar kesimida bayon etilgan. Asar fan tarixida «Historia gothica» («Gotlar tarixi») nomi bilan ham mashhur. Asarning SSM 721 raqami bilan ro'yxatga olingan XVI asrda ko'chirilgan nusxasi bugungi kunda Ispaniyaning Eskorial kutubxonasida saqlanmoqda. Uning lotincha matni ispan tilidagi tarjimasi bilan birga 1989-yilda Madridda [6] e'lon qilingan.

Rodrigo de Radaning yana bir asari mavjud bo'lib, u «Historia arabum» [3] («Arablar tarixi») deb nomlanadi. Asar kichik hajmli risola ko'rinishida bo'lsada, unda musulmonlarning Pireney yarim oroliga bostirib kirgan 711-yildan to muallif davriga qadar bo'lgan tarixi qisqa bayon orqali yoritib beriladi. Bu asarda ham XII asrning birinchi yarmida olib borilgan tarjima ishlariga doir ayrim qaydlar uchraydi. Misol uchun, unda Toledo maktabi rahbari Raymondoni maktabda yaratilgan ayrim tarjimalarni, ularning arabcha nusxalari asosida tekshirib berish uchun Saragossada faoliyat yuritgan Dalmatlik Hermanga jo'natganligiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Mazkur asarning asl nusxasi bugungi kunda Sevilya universiteti kutubxonasi lotin qo'lyozmalar fondida 69/142 raqami bilan saqlanmoqda. Qo'lyozma 1974-yilda Sevilyada lotin va ispan tillarida nashr [7] qilingan.

TADQIQOT USULLARI

Mavzuni yoritishda tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, tasniflash, kompleks yondashish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barselona. Pireney yarim orolining musulmonlar tomonidan bo'ysundirilgan boshqa shaharlaridan farqli ravishda yarim orolning shimoli-sharqida joylashgan Barselonada musulmonlar hokimiyatdan ancha erta, ya'ni 801-yildayoq chetlatilgan edi. Dastlab Karolinglar imperiyasi tarkibidagi Ispan markazi poytaxti hisoblangan shahar, 988-yilda Barselona grafligining markaziga aylanadi. Mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lgan mazkur graflik 1152-yilda Aragon qirolligining tarkibiga qo'shib olingan va 1707-yilgacha uning tarkibida bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, shaharga musulmon madaniyati al-Andalusning markaziy shaharlari orqali o'z ta'sirini o'tkazib turgan. Bunda, Qurtoba xalifaligi va Pireney yarim orolining xristianlar qo'lida bo'lgan shimoliy hududlaridagi davlatlar o'rtasida o'rnatilgan savdo aloqalari muhim rol o'ynagan. Shuningdek, XII–XIII asrlarda shaharda yarim oroldagi eng ko'p yahudiy jamoalari istiqomat qilgan bo'lib, ularning asosiy qismi davlat xizmatchilari va o'z davrining yetuk olimlari edi.

XII asrda mazkur shaharda o'rta asrlar tarixidagi eng mashhur tarjimonlar Avraam bar-Hiya hamda Tivolalik Platon faoliyat yuritishgan. Ular asosan astrologiya va astronomiyaga oid asarlarni lotin tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanishgan. Qayd etish lozimki, mazkur ikki tarjimon 1134–1136-yillarda o'zaro hamkorlikda ish yuritishgan. Bu jarayonda tarjima uchun tanlab olingan asarlar dastlab Avraam bar-Hiya tomonidan yahudiy tiliga o'girilgan, ayni tarjimani o'z navbatida Platon lotin tiliga o'girgan.

Barselona tarjimonlari faoliyatiga ayrim qaydlarni «De rebus Hispaniae» solnomasida uchratish mumkin. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Toledo arxiyepiskopi Raymondo 1136-yilda 150 ta astronomik iboralardan iborat bo'lgan arab tilidagi asarni lotin tiliga tarjima qilib berishini so'rab Tivolalik Platonga jo'natadi [6: 124]. Biroq, asarning arabcha matni murakkab gap qurilishida yozilganligi bois, Platon asarni astronom olim hisoblangan Avraam bar-Hiyadan tushunarliroq tilda yahudiy tiliga tarjima qilib berishini iltimos qiladi [6: 126]. Shu tariqa fan tarixida «Iudicia Almansoris» («al-Mansur qarorlari») nomli asar keng tarqaladi. Qayd etish lozimki, ushbu asarning asl arabcha matni saqlanmagan bo'lib, u aynan Platon yaratgan lotincha nusxasi orqali hozirga qadar yetib kelgan. Bu jihat ham Barselonadagi tarjimachilik ishlari muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

«De rebus Hispaniae»da keltirilgan yana bir ma'lumotda, arxiyepiskop Raymondo 1130-yilda Barselonaning o'sha vaqtdagi grafi Ramon Berenger III (1097–1131)ga maktub yo'llab, undan Avraam va Platonga asarlarni tarjima qilish uchun shaharning bosh cherkovi hisoblangan Muqaddas Pablo ibodatxonasidan joy ajratishni va ularga hayot kechirish uchun ma'lum miqdorda pul berishni yoki kunlik ehtiyojlari uchun oziq-ovqat bilan ta'minlashini [6: 132] iltimos qiladi. Biroq, manbada graf tomonidan arxiyepiskopning iltimoslari qondirilgani yoki rad etilganligi to'g'risida hech narsa deyilmaydi. Shunday bo'lsa, mavjud ma'lumotlar Barselona tarjimonlarining faoliyati o'z davrida Toledo maktabi ma'murlari tomonidan qo'llab-quvvatlangani hamda ma'lum doirada boshqarib turilgan, deb xulosa qilishga asos bo'ladi. Bundan tashqari, tarjimonlarni lotin tiliga o'g'irilishi lozim bo'lgan arab tilidagi asarlar bilan ham maktab rahbariyati ta'minlab turgan.

Antik davr hamda musulmon Sharqi olimlarining eng mashhur asarlarini tarjimonlari hisoblangan Avraam bar-Hiya va Tivolalik Platon to'g'risida biz o'zimizning avvalgi ishlarimiz [9]da ma'lumot berganmiz.

Saragosa. Ispaniyaning shimolida joylashgan mazkur shahar 713-yilda musulmonlar tomonidan bosib olingan va 1118-yilda xristianlar hokimiyati qayta tiklangan Saragossa hududning qadimiy shaharlaridan biri hisoblanadi. XII asr boshida Aragon qirolligining poytaxtiga aylantirilgan shaharda mahalliy xristianlardan tashqari, musulmonlar va katta sonli yahudiylar istiqomat qilishgan. Mazkur jihat, shaharda uch madaniyat an'analari o'zaro qorishuviga hamda bu yerda ham Toledodagi kabi o'ziga xos taraqqiyotni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bu davrda shaharda ayniqsa yahudiy aholi vakillarining o'rni ancha mustahkamlanib, ular saroydagi asosiy vazifalarni egallashgan. Misol uchun, ulardan biri mashhur tabib, yozuvchi va astronom Moshe Sefardi bo'lib, u qirol Alfonso I (1104–1134)ning shaxsiy shifokori sifatida xizmat qilgan. Muhim jihati, Moshe Sefardi tarjima sohasida ham samarali ijod qilishi natijasida XII asrning eng mashhur tarjimonlaridan biriga aylanadi. Jumladan, u Yevropa tarjima tarixida badiiy adabiyot va tarixga oid arab tilidagi asarlarning birinchi tarjimoni hisoblanadi.

Shaharda ijod qilgan yana bir mashhur tarjimon Dalmatlik Herman bo'lib, u ham XII–XIII asrlardagi tarjima jarayonida muhim o'ringa ega. Herman nafaqat tarjimon balki astronomiya, matematika va falsafa sohalarida ijod qilgan yetuk olim bo'lgan. Dalmatlik Hermannning tarjimonlik faoliyati natijasida antik davr hamda o'rta asr Sharq mutafakkirlarining o'nga yaqin matematik, astronomik hamda falsafiy asarlarini lotin tiliga o'g'irilgan. Bu asarlar ichida Yevklidning «Στοιχεῖα» [Stoyxéya] («Negizlar») va Muhammad al-Xorazmiyning «Zij al-Xorazmiy» kabi fan tarixidagi eng nodir asarlarni ham uchratish mumkin. Qayta ta'kidlash lozimki, Herman o'z davrining eng yetuk tarjimonlardan biri hisoblangan. Shu boisdan ham Toledo maktabi ma'murlari tarjimon bilan doimiy aloqalar olib borishgan. Buni, Raymondoni maktabda yaratilgan bir qancha tarjimalarni tekshirib berish uchun 1140–1142-yillar oralig'ida Dalmatlik Hermanga jo'natib turganligi to'g'risida manbalarda saqlangan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, «Historia arabum» asarida 1140-yilda arxiyepiskop Raymondo asarlarni arab tilidan to'g'ridan-to'g'ri lotinchaga o'g'iruvchi Hermanga turli jadvallardan iborat arabcha asar matnini uning 1126-yilda yaratilgan lotincha tarjimasi bilan birga yuborganligi [7: 17] qayd etiladi. Ta'kidlanishicha, arxiyepiskop tarjimondan asarni lotincha tarjimasini uni asl nusxasi bilan solishtirib, tekshirib berishni [7: 18] so'ragan. Bizningcha, bu asar al-Xorazmiyning yuqorida ko'rsatilgan «Zij al-Xorazmiy» asaridir. Chunki, ayni asar 116 ta jadvaldan iborat bo'lib, u Raymondning topshirig'iga ko'ra 1126-yilda Batlik Adelard tomonidan ilk bor lotin tiliga tarjima qilingan edi. Biz ayni masalani o'zimizning «Zij al-Xorazmiy»ning lotincha tarjimalarini fandagi ilk tatbiqiga oid ayrim mulohazalar» nomli ishimiz [9]da tahlil etganmiz.

TARIX

Dalmatlik Hermann o'z davrining yetuk tarjimon bo'lganligini uni boshqa tarjimonlar tomonidan ustoz sifatida ulug'langanligi ham tasdiqlaydi. Jumladan, Saragossadan shimolroqdagi Pamplona shahrida ijod qilgan Kettonlik Robert bevosita uning shogirdi hisoblanadi.

Saragossada ijod qilgan tarjimonlardan yana biri hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar deyarli saqlangan Santalalik Gyugo bo'lib, taxminan XII asrda faoliyat yuritgan. U tomonidan yaratilgan va bugungi kunga qadar yetib kelgan tarjimalar ichida Sharq olimlaridan Mashalloh ibn Asariy (taxm. 740–815)ning astrologiyaga oid bir qancha risolalari mavjud.

Pamplona. Pireney yarim orolining Fransiya bilan chegaradosh shimoliy hududida joylashgan Navarra tarixiy viloyatidagi Pamplona shahrini 738-yilda musulmonlar bosib olishgan. 778-yilda shaharda Buyuk Karl qo'shinlari tomonidan xristianlar hokimiyati qayta tiklanadi. 824-yildan shahar o'z mustaqilligini e'lon qilgan Navarra qirolligining poytaxtiga aylantirilgan.

Mazkur shaharda XII asrda ijod qilgan tarjimonlarning eng mashhuri Kettonlik Robert bo'lib, u tarjima tarixida «Qur'on»ning lotin tilidagi birinchi nusxasini yaratgan tarjimon sifatida e'tirof etiladi. Biroq, manbalarda tarjimonning shaxsiyati to'g'risida deyarli ma'lumotlar saqlanmagan. Shaharda tarjimachilik ishlarini yanada jonlanishi va uni tizimli ravishda olib boriluvchi faoliyatga aylanishida Monbuasselik Pyotr muhim rol o'ynagan. Aslida Burgundiya (Fransiya) hududidagi Klyuniya abbatligi bosh ruhoniysi hisoblangan mazkur shaxs, 1142–1143-yillarda Pireney yarim oroliga amalga oshirgan safari chog'ida Pamplonada bir qancha tarjimonlarni jamlaydi va islomiy qo'lyozmalarni lotin tiliga tarjima qilish ishlarini tashkil etadi. Ushbu tarjimonlar guruhiga yuqorida ismlari tilga olingan Dalmatlik Herman, Kettolik Robert hamda Puatelik Pyer, Toledolik Pedro va Muhammad ismli musulmon kirgan. Ulardan, Monbuasselik Pyotrning shaxsiy kotibi hisoblangan Pyer Burganiyadan abbat bilan birgalikda kelgan bo'lsa, Pedro va shaxsiyatiga oid ma'lumotlar saqlanmagan Muhammad Toledodan taklif etilgan [4: 116] edi.

Pamplona tarjimonlar guruhini faoliyati to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar «Summa totius haeresis Saracenorum»da saqlangan. Monbuasselik Pyotrning qayd etishicha, 1142-yilda o'zi boshqargan Klyuniya abbatligini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga ko'ndirish uchun qirol Alfonso VII (1126–1157) huzuriga [4: 117], ya'ni Kastiliyaga boradi. Ushbu safar chog'ida u dastlab Navarradagi Nahera shahrida to'xtab, shahardagi Santa-Mariya de-Nahera cherkoviga Dalmatlik Herman hamda Kettolik Robert chaqirtiradi. Shuningdek, Toledo tarjimonlarining egasi Raymondodan musulmonlar diniga oid unda mavjud bo'lgan asarlarni va mazkur asarlarni lotin tiliga tarjima qilish uchun o'z tarjimonlaridan birini Naheraga yuborishini [4: 117] so'rab maktub yo'llaydi. Biroq, asarda keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Kettolik Robertning iltimosiga binoan yuqorida ismlari tilga olingan besh nafar tarjimon Pamplonada to'planishadi [4: 118]. Monbuasselik Pyotr mazkur tarjimonlar guruhiga islom dini va uning tarixiga oid asarlarni lotin tiliga tarjima qilish to'g'risida ko'rsatma beradi [4: 117].

Bu o'rinda, bevosita islom dini yetib bormagan va Pireney yarim oroli kabi musulmon madaniyati ta'sirida bo'lmagan Burgundiya hududidagi yirik abbatlik bosh ruhoniysida nima sababdan islomiy asarlarni lotin tiliga o'girish ehtiyoji paydo bo'lgan, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Mazkur savolga ham Monbuasselik Pyotrning o'zi asarda qisqacha javob berib o'tgan. Jumladan muallif asarda *lotincha tarjimolari orqali butun xristian olamiga tarqayotgan musulmon faylasuflarining qarashlariga qarshi kurashish va ularni inkor etish uchun avvalo mazkur ta'limotlarning asosi hisoblanmish islomni to'g'ri va chuqurroq tushunish lozimdir, shuning uchun ham ularning muqaddas kitobi [Qur'on]ni arab tilidan lotinga o'girish uchun ushbu qo'lyozmani va bu ishni amalga oshiruvchi [tarjimon]larni Santa-Mariya al-Realda jamladim*, [4: 119] deb qayd etadi. Mazkur ma'lumot arab tilidagi asarlar nafaqat ilmiy ehtiyoj sabab, balki o'sha davrda mavjud bo'lgan mafkuraviy kurashlarda foydalanish uchun ham lotin tiliga tarjima qilganligidan dalolat beradiki, ayni jihat XII–XIII asrlardagi Yevropa tarjima markazlari faoliyatining yana bir o'ziga xos qirrasini namoyon etadi.

Pyotr tashkil etgan tarjimonlar guruhi tomonidan 1142-yilda «Qur'on» dastlabki lotin tarjimasi yaratilgan. Ammo, bu nusxa ushbu muqaddas kitobning lotin tilidagi mukammal tarjimasi bo'lmay, tarjimadan yuqorida aytilganidek mafkuraviy qarama-qarshiliklarda foydalanish maqsad qilinganligi bois, undagi ayrim matnlar atayin noto'g'ri talqin qilingan.

1143-yilda Kastiliyadagi safarini yakunlab, Burgundiya qaytish vaqtida Pyotr arab tilidagi boshqa diniy asarlarni lotin tiliga tarjima qilishda Kettonlik Robertga yordam berishi va yaratilgan

yangi tarjimalarni Klyuniyaga jo'natib turishi uchun o'z kotibi Puatelik Pyerni Pamplonada qoldiradi. «Summa totius haeresis Saracenorum»da yozilishicha, Toledolik Pedro va Muhammad ham ushbu shaharda yashab qolishgan [4: 285]. Bundan tashqari, Pyotr o'z tarjimonlarni moliyaviy jihatdan ta'minlab turishga qirol Alfonso VII ni ko'ndirganligini [4: 285] ham qayd etadi. Kettonlik Robert esa cherkov oldidagi o'z xizmatlari uchun shaharning bosh arxidiakonligiga tayinlanadi [4: 286] va bu orqali u Pamplona tarjimonlar guruhining keyingi faoliyatidagi rahbariga ham aylanadi. «Summa totius haeresis Saracenorum»ning bu qismida 1142-yilda Pamplonaga chaqirtirilgan tarjimonlardan yana biri Dalmatlik Hermannning ismi tilga olinmaganligiga qaraganda, u 1143-yilda o'zi faoliyat yuritgan Barselonaga qaytib ketgan.

Muxtasar qilib aytganda, dastlab islomiy qarashlarga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan mazkur tarjimonlar guruhi, keyinchalik musulmon faylasuflari asarlarning lotin tiliga tarjima qiluvchi olimlar jamoasiga aylanadi. Buni, Kettonlik Robert, Puatelik Pyer va Toledolik Pedro tomonidan yaratilgan bir qancha tarjimalar ham tasdiqlaydi. Mazkur tarjimonlar faoliyati natijasida Pamplona, shu jumladan Navarra hududi XII–XIII asrlarning yirik arabshunoslik tarjima markazlaridan biriga aylanadi.

Segoviya. Toledodan taxminan 150 km. shimolda joylashgan mazkur shahar 714-yilda musulmonlar tomonidan zabt etilib, al-Andalus viloyati tarkibiga qo'shib olinadi. Shaharda 1085-yilda qirol Alfonso VI tomonidan mahalliy xristianlar hokimiyati qayta tiklanadi. Segoviyada yuqorida fikr yuritilgan shaharlar kabi bir qancha vakillardan iborat tarjimonlar guruhi faoliyat yuritmagan. Ammo, ayni shaharda o'z davrining mashhur tarjimoni, astronom va matematik olimi, antik davr hamda o'rta asr musulmon Sharqi mutafakkirlarining eng nodir asarlarini lotin tiliga ilk bor tarjima qilgan Chesterlik Robert ijod qilgan. XII asrning birinchi choragida Britaniyadan ko'chib kelgan mazkur tarjimonning samarali faoliyati natijasida astronomiya va matematika ilmlari rivojida o'ta muhim o'ringa ega bo'lgan arab tilidagi asarlar lotin tiliga o'giriladi. Bu kabi asarlar ichida al-Xorazmiyning «Zij al-Xorazmiy» va «Kitob muxtasar fi hisob al-jabr va-l-muqobala» nomli risolalari ham mavjudligi alohida e'tibor loyiq.

Afsuski, mazkur tarjimon to'g'risida ma'lumotlar juda kam saqlangan. «De rebus Hispaniae» («Ispaniya bo'yicha savollar»)da Chesterlik Robertni Segoviyada yashagan, hisob-kitobga oid arab tilidagi bir qancha qo'lyozmalar lotinchaga tarjima qilgan hamda o'z vatandoshi Batlik Adelardning tarjimalariga tuzatishlar kiritgan astronom va matematik olim [6: 245] sifatida e'tirof etiladi. Bu Robert to'g'risida manbalarda keltirilgan kam sonli ma'lumotlar biri bo'lib, uni o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lganligini anglatadi. Manbalarda, Robertni asarlarni biror bir buyurtmachi uchun tarjima qilganligi yoki hamkorlikda ishlaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni mavjud emasligi, uni arab tilidagi asarlarni o'z ilmiy ehtiyojidan kelib chiqib lotin tiliga o'giranligi hamda arab tilini yaxshi darajada o'zlashtirganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, uni Toledoda ijod qilgan Batlik Adelard tarjimalariga tuzatishlar kiritganligiga oid qaydlar, Segoviya tarjimonini Toledo maktabi vakillari bilan o'zaro aloqaga ega bo'lganligi to'g'risida taxmin qilishga asos bo'ladi.

Afsuski, Robertning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar ham juda kam. Shu sababdan ayrim tadqiqotchilar, jumladan avvalroq qayd etilganidek, L.Ch.Karpinskiy va unga tayangan tadqiqotchilar tarjimonni yuqorida ismi tilga olingan Kettonlik Robert bilan bitta shaxs deb ta'kidlashadi. Bu kabi chalkashlik keyingi davrlarda yaratilgan sohaga doir ko'plab adabiyotlarda Chesterlik Robert tarjimalarini Kettonlik Robertniki, Kettonlik Robert ishlarini esa Chesterlik Robertniki deb ko'rsatilishiga sabab bo'lgan.

Yuqorida qayd etilganidek, Segoviyada ko'p sonli tarjimonlar faoliyati ko'zga tashlanmasada, bu yerda ijod qilgan birgina Chesterlik Robertning faoliyati natijasida shahar XII asrning muhim tarjima markazlari qatoridan joy oldi.

XULOSA

Lotin tilli manbalar tahlili o'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniyaning Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya kabi shaharlari muhim o'rin tutganligini anglatmoqda. Ularni, o'zining tuzilishi, faoliyat ko'lami va mohiyatiga ko'ra o'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimining ikkinchi toifasiga, ya'ni tarjima jarayonlari tarjimonlarning mustaqil faoliyati ko'rinishida kechgan markazlar qatoriga kiritish maqsad muvofiqdir. Tizimda birinchi toifaga kiruvchi, ya'ni tarjima jarayonlari ta'lim muassasalarida olib borilgan, boshqacha aytganda, tom ma'nodagi tarjima muassasalari faoliyat yuritgan Mursiya va Sevilyadagi jarayonlarning tahlil natijalari alohida maqola

TARIX

sifatida keyingi ishlarda e'lon qilinadi. Bunday yondashuvga sabab, Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviyada tarjima jarayonlari Mursiya va Sevilyadan avvalroq yo'lga qo'yilganligidir.

ADABIYOTLAR RO'YXAT

MANBALAR

QO'LYOZMALAR

1. Summa totius haeresis Saracenorum – MS 381. / Bibliothèque municipale de Douai. France.
2. De rebus Hispaniae – CCM 721. / Real Monasterio de San Lorenzo de El Escorial. España.
3. Historia arabum – 69/142. / Biblioteca de la Universidad de Sevilla. España.

NASHRLAR

4. Petrus Venerabilis. Summa totius haeresis Saracenorum. / In Peter the Venerable and Islam / Ed by J.A.Kritzeck. – Princeton: Princeton University Press, 1964. – P. 115–293. – 301 p.
5. Peter the Venerable. Writings against the Saracens. / Trans. by I.M.Resnick. – Washington: – The Catholic University of America Press, 2016. – 189 p.
6. Rada de J.R. Historia de los hechos de España. / Introd., traduc., notas de J.F.Valverde. – Madrid: Alianza editorial, 1989. – 457 p.
7. Rada de J.R. Historia arabum. / Publicaciones de la Universidad de Sevilla: Serie Filosofía y letras. – Sevilla: Salesiana, 1974. – 92 p.

TADQIQTOTLAR

8. Маҳмудов О.В. Европада Марказий Осиё олимлари илмий меросини ўрганишда Толедо мактабининг ўрни. / Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2018. – 50 б. (Makhmudov O.V. The role of the Toledo School in the study of the scientific heritage of Central Asian scientists in Europe. / Dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on historical sciences. – Tashkent: IOS of ASU RUZ, 2018. – 50 p.) [in Uzbek].
9. Маҳмудов О.В. «Зиҳ ал-Хоразмий»нинг латинча таржималарини фандаги илк татбиқига оид айрим мулоҳазалар. // «Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методлари ва методологиясининг долзарб масалалари» мавзусидаги Республика XIII илмий-назарий конференциясининг материаллари. – Тошкент: ТДШУ, 2021. – Б. 129-133. (Makhmudov O.V. Some reflections on the early application of Latin translations of «Zij al-Khorezmi» in science. // Materials of the XIII scientific and theoretical Conference of the Republic on the theme «Historical source studies, historiography, current issues of methods and methodology of history research». – Tashkent: TSUOS, 2021. – P. 129-133.) [in Uzbek].
10. Маҳмудов О. В. Толедо мактабининг ҳамкор таржимонлари ва уларнинг фаолияти хусусида баъзи маълумотлар // «ЎЗМУ хабарлари» илмий журнали. – Тошкент: ЎЗМУ, 2017. – № 2. – Б. 50-54. (Makhmudov O.V. Some information about the partner translators of the Toledo School and their activities. // Scientific journal Acta NUUZ. – Tashkent: NUUZ, 2017. – Vol. 2. – P. 50-54.) [in Uzbek].
11. Маҳмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида жанубий Франция шаҳарларининг ўрни: Марсель ва Монпелье. // «ЎЗМУ хабарлари» илмий журнали. – Тошкент: ЎЗМУ, 2022. – № 11/1. – Б. 23-27. (Makhmudov O.V. The place of the cities of Southern France in the system of medieval European translation centers: Marseille and Montpellier. // Scientific journal Acta NUUZ. – Tashkent: NUUZ, 2022. – Vol. 11/1. – P. 23-27.) [in Uzbek].
12. Маҳмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Италия шаҳарларининг ўрни: Неаполь ва Падуа. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2022. – № 11/3. – Б. 45-49. (Makhmudov O.V. The place of Italian cities in the system of medieval European translation centers: Naples and Padua. // Bulletin of the Khorezm Mamun Academy. – Khiva: Khorezm Mamun Academy, 2022. – Vol. 11/3. – P. 45-49.) [in Uzbek].
13. Маҳмудов О.В. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Сицилия шаҳарларининг ўрни: Палермо. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2022. – № 12/3. – Б. 60-65. (Makhmudov O.V. The role of Sicilian cities in the system of medieval European translation centers: Palermo. // Bulletin of the Khorezm Mamun Academy. – Khiva: Khorezm Mamun Academy, 2022. – Vol. 12/3. – P. 45-49.) [in Uzbek].
14. Boncompagni B. Delle versioni fatte da Platone Tiburtino. // Atti dell' Accademia pontificia dei Nuovi Lincei. 1851. Tomo 4. – S. 249-286.
15. Burnett C. A group of Arabic-Latin Translators Working in Northern Spain in the Mid-12th Century // Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. 1977. – Vol. 1. – P. 62–108.
16. Burnett C. The Translating Activity in Medieval Spain // The Legacy of Muslim Spain. / Ed. S. K. Jayyusi. – Leiden, 1992. – P. 1036–1058.
17. Karpinski L.C. Robert of Chester's Latin translation of the Algebra of al-Khowarizmi. – NewYork-London: Macmillan Company, 1915. – 164 p.
18. Mahmudov O.V. «O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid. // «FarDU ilmiy xabarлари» ilmiy jurnali. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti., 2022. – № 5. – Б. 36-44. (Makhmudov O.V. About the concept of «translation centers of medieval Europe» and its scholarly use. // Scientific journal FerSU. – Fergana: FerSU, 2022. – Vol. 5. – P. 36-44.) [in Uzbek].
19. Pym A. Negotiating the Frontier: Translators and Intercultural in Hispanic History. – Milton Park: Routledge, 2014. – 278 p.